XALQ DEPUTATLARI URGANCH SHAHAR KENGASHI
QARORI

2023 - yil 29 - dekabr VI-80-156-12-180-K/23 Urganch shahar hokimligi

Urganch shaharining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasi, 2023-yil 25-dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-sonli Qonuniga, xalq deputatlari Xorazm viloyat Kengashining 2023-yil 28-dekabrdagi “2024-yil uchun Xorazm viloyati mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-76-190-12-0-K/23 –sonli qaroriga muvofiq hamda Xorazm viloyati iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 25-dekabrdagi 01/30-2-10354-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Urganch shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” 2023-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-886-sonli Qonuni hamda xalq deputatlari Xorazm viloyat kengashining 2023-yil 28 dekabrdagi “2024-yil uchun Xorazm viloyati mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-76-190-12-0-K/23-sonli qarori ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Xorazm viloyat kengashining 2023-yil 28-

dekabrdagi “2024-yil uchun Xorazm viloyati mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-76-190-12-0-K/23-sonli qaroriga (keyingi o‘rinlarda Qaror deb ataladi) muvofiq, Urganch shahar mahalliy budjetining 2024-yil uchun daromadlari 159,8 mlrd.so‘m, xarajatlari 201,4 mlrd.so‘m prognoz qilinganligi hamda respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 41,5 mlrd.so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2024-yil uchun Urganch shahar mahalliy budjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2024-yil uchun Urganch shahar mahalliy budjeti asosiy xarajat ko‘rsatkichlari 2-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

5. 2024-yil uchun Urganch shahar mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. 2024-yil uchun Urganch shahar mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

7. 2024-yil uchun Urganch shahar mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi 5-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. 2024-yil uchun viloyat budjetidan Urganch shahar mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

- Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini shahar mahalliy budjeti daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

10. 2024-yil uchun Urganch shahar mahalliy budjeti zahira jamg‘armasi hajmi 1 787,9 mln.so‘m miqdorda belgilansin.

- Urganch shahar mahalliy budjetining 2024-yil zahira jamg‘armasi tegishli budjet tasdiqlangan umumiy xarajatlarning kamida (bunda shahar budjetining jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirishga doir mablag‘lar mustasno) 1,0 foiz miqdorida shakllantirilsin.

11. 2024-yil uchun Urganch shahar mahalliy budjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

12. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2024-yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2024-yilda quyidagi soliq turlari:

a) quyidagi soliq turlari rag‘batlantiruvchi daromadlar:

- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (ajratma me’yori 10 foiz)

b) Urganch shahar budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

- jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

- jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

- jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (YaTT);

- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

- davlat aktivlarini foydalanishga (ijaraga) berishdan qonunchilikda

belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar.

- qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq.

s) quyidagi soliq turlari viloyat va tuman (shahar)lar budjetlari o‘rtasida taqsimlanadi:

- yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

- aylanmadan olinadigan soliq;

d) quyidagi soliq turlari bo‘yicha aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlar 2023-yil 1-iyul holatiga ko‘ra tuman va shahar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq tegishli ravishda o‘tkazib beriladigan daromadlar:

- Alkogolga aksiz solig‘i (shu jumladan pivo) ;

- Mobil aloqaga aksiz solig‘i;

- Tamaki mahsuloti uchun aksiz solig‘i;

13. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining tashabbusiga ko‘ra amalga oshiriladigan qo‘shimcha tadbirlarni moliyalashtirish faqat viloyatlar va tumanlar va shaharlar mahalliy budjetlarining qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladi.

- Choraklar yakunlari bo‘yicha ushbu Qonunning 4-ilovasida keltirilgan daromadlarning prognoz ko‘rsatkichlari mahalliy ijro hokimiyati organlarining faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra 5 foizdan ortiq miqdorga bajarilmagan va moliya yili oxirigacha ushbu mablag‘larning tushish ehtimoli bo‘lmagan taqdirda, viloyat hokimligi Vazirlar Mahkamasiga xarajatlarni maqbullashtirish bo‘yicha choralar ko‘rish bilan birga tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini oshirish yuzasidan so‘rov bilan murojaat qiladi hamda mazkur taklif Vazirlar Mahkamasi tomonidan ushbu Qonunda belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi.

Bunda viloyat mahalliy budjetlarining tegishli chorakdagi mahalliy ijro hokimiyati organlarining faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra bajarilmagan va moliya yili oxirigacha ushbu mablag‘larning tushish ehtimoli mavjud bo‘lmagan budjet daromadlari turlarining prognoz ko‘rsatkichlari aniqlashtiriladi hamda ushbu summa boshqa daromad manbalari yoki respublika budjeti hisobidan qoplanadi.

Tumanlar va shaharlar hokimliklari ham viloyat hokimligiga huddi shunday tartibda murojaat qiladi.

Quyidagilar tegishincha viloyatlarning viloyat budjetidan va tumanlar va shaharlar budjetlaridan moliyalashtiriladi:

Soliq qo‘mitasining hududiy organlarini saqlash xarajatlari;

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining hududiy organlarini saqlash xarajatlari;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri, tumanlar va shaharlardagi Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari;

Sud boshqaruvchilarining mehnatiga haq to‘lash bilan bog‘liq xarajatlar.

14. Urganch shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (J.Eshchanov), Urganch shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi (J.Sapayev), Urganch shahar davlat soliq inspeksiyasi (S.Abdullayev) mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

- tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

- mahalliy budjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;.

- budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

- budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

- tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

- budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

15. Davlat soliq inspeksiyasi (S.Abdullayev), tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda:

- noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

- xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

- noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

- Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

16. Urganch shahar davlat soliq inspeksiyasi (S.Abdullayev) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

- soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini

kuchaytirishga;

- yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rishga;

- aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazishga;

- Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

- xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

17. Urganch shahar davlat soliq inspeksiyasi (S.Abdullayev), Kadastr agentligi Urganch shahar bo‘limi (B.Allayarov) 2024-yil uchun yuridik shaxslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, viloyatda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

18. Majburiy ijro byurosi Urganch shahar bo‘limi (R.Matrasulov) Urganch shahar davlat soliq inspeksiyasi (S.Abdullayev) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks

chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

19. Urganch shahar kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (S.Yaqubov) jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

20. Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (J.Eshchanov) tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda:

- bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

- xatlov natijalariga ko‘ra shaharda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlari ro‘yxatini shakllantirish;

- shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

- bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va video-materiallar tayyorlash;

- xususiylashtirilishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini «e-ijro auksion» maydonchasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirish vazifasi yuklatilsin.

21. Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (J.Eshchanov) tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda tashqi reklama ob’ektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama ob’ektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni budjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

22. Urganch shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi v.v.b

(J.Sapayev):

- budjet intizomiga qat’iy rioya etilishi ustidan doimiy monitoring ishlari kuchaytirsin;

23. Kengashning mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

- mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

- Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga monitoring qilishga;

- Mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

23. Urganch shahar hokimligi:

- Urganch shahar mahalliy budjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

- Bunda, Urganch shahar xalq deputatlari, shahar hokimligining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari, shahar hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot

ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

- mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

24. Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (J.Eshchanov), tegishli muassasa va tashkilotlar bilan birgalikda:

- mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

- ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

25. Urganch shahar hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

26. Mazkur qaror “Yangi Urganch” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda Urganch shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

27. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

28. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Urganch shahar Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi va Urganch shahar hokimligi zimmasiga yuklatilsin

Urganch shahar hokimi **B.Radjapov**

Xalq deputatlari Urganch shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-80-156-12-180-K/23-son qaroriga
1-ilova

2024-yil uchun Urganch shahar bo‘yicha mahalliy budjet daromadlarining reja ko‘rsatkichlari

Daromad turlari		**ming. so‘m**
	Jami daromadlar	**192 555 550,0**
I.	**Rag‘batlantiruvchi (Stimuliruyuщie) daromad**	**47 329 000,0**
	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	*471 448 000,0*
	ajratma me’yori	***10,0***
1.	mahalliy budjetga	47 144 000,0
II.	**Biriktirilgan daromadlar**	**112 701 000,0**
	Tuman va shaharlarga biriktirilgan	**51 547 000,0**
1	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	8 808 000,0
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (ITD)	9 589 000,0
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	11 080 000,0
4	Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq noruda	88 000,0
5	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	19 670 000,0
6	Ijara to‘lovlari	2 317 000,0
	Viloyat va tuman (shahar)lar budjetlari o‘rtasida taqsimlanadigan daromadlar	**61 154 000,0**
1	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq (AZS)	50 081 000,0
2	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	40 097 000,0
3	Yuridik shaxslar yer solig‘i	24 016 000,0
	ajratma me’yori	***100,0***
	mahalliy budjetga	24 016 000,0
4	Yagona soliq to‘lovi	37 138 000,0
	ajratma me’yori	***100,0***
	mahalliy budjetga	37 138 000,0
5	Yig‘imlar	62 661 000,0
	JAMI XARAJATLAR	***201 362 681***
III.	**TRANSFERTLAR**	**41 516 881,0**
	Shu jumladan taqsimlanuvchi daromadlar	**26 050 550,0**
	Aholi soni (ming kishi)	*152,1*
1	Alkogolga aksiz solig‘i (shu jumladan pivo)	11 292 066,0
2	Mobil aloqaga aksiz solig‘i	4 548 466,0
5	Tamaki mahsuloti uchun aksiz solig‘i	10 210 018,0

Xalq deputatlari Urganch shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-80-156-12-180-K/23-son qaroriga
2-ilova

Urganch shahar mahalliy budjetining 2024-yilgi asosiy xarajat ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

Ko‘rsatkichlar		Miqdori
	XARAJATLAR-JAMI	**201 362 681**
1.	**IJTIMOIY SOHA VA AHOLINI IJTIMOIY QO‘LLAB-QUVVATLAShGA XARAJATLAR - JAMI**	**107 942 758**
	shu jumladan:	
1.1	Maorif	38 867 875
	- maktabgacha ta’lim	18 849 197
	- umumiy ta’lim	20 018 678
1.2	Sog‘liqni saqlash	63 201 315
1.3	Tibbiy-ijtimoiy xizmatlar uchun xarajatlar	
1.4	Madaniyat va sport, ommaviy axborot vositalari	5 532 232
	- madaniyat va ommaviy axborot vositalari	1 199 020
	- sport	4 333 212
1.5	Bolali oilalarga va kam ta’minlangan oilalarga nafaqalar va kompensatsiyalar	
1.6	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	31 200
1.7	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	310 136
2.	**IQTISODIYOTGA XARAJATLAR**	**46 290 104**
2.1	Obodonlashtirish	38 465 626
2.2	Ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llarni ta’mirlash xarajatlari	4 000 000
2.3	Veterinariya qo‘mitasi	1 717 178
2.4	"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	1 492 100
4.	**DAVLAT BOShQARUV ORGANLARINI SAQLASh**	**25 089 277**
4.1	Davlat boshqaruv idoralari	25 089 277
5.	**FUQAROLARNING O‘ZINI O‘ZI BOShQARISh ORGANLARINI SAQLASh**	
6.	**ZAHIRA JAMG‘ARMASI**	**1 787 069**
7.	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi**	**20 868 673**

Xalq deputatlari Urganch shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-80-156-12-180-K/23-son qaroriga
3-ilova

2024-yil uchun Urganch shahar budjetidan birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan kengash ajratmalarining cheklangan miqdorlari

№	Ko‘rsatkichlar	Shahar hokimligi tomonidan kiritilgan
Xarajatlar miqdori, jami		**201 362 681**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**202 053 314**
1.	**Xalq ta’limi bo‘limi**	**20 018 678**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	20 018 678
2.	**Maktabgacha ta’lim bo‘limi**	**18 849 197**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	18 849 197
3.	**Tibbiyot birlashmasi**	**63 201 315**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	63 201 315
4.	**Madaniyat bo‘limi**	**1 199 020**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 199 020
5.	**Jismoniy tarbiya va sport bo‘limi**	**4 333 212**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 333 212
6.	**Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi**	**1 717 178**
	joriy xarajatlar	1 717 178
7.	**Moliya bo‘limi**	**31 200**
	shu jumladan:	
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	31 200
8.	**Obodonlashtirish boshqarmasi**	**44 572 926**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	38 465 626
	Ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llarni ta’mirlash xarajatlari	4 000 000
	"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	1 492 100
9.	**Hokimiyat**	**48 130 588**
	shu jumladan:	
	Davlat boshqaruv idoralari	25 089 277
	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	310 136
	Zahira jamg‘armasi	1 787 069

	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	20 868 673

Xalq deputatlari Urganch shahar Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-80-156-12-180-K/23-son qaroriga
4-ilova

Umumdavlat soliqlaridan shahar va tumanlar mahalliy byudjetlariga ajratmalar me’yori

Foiz hisobida

T/R	Shahar va tumanlar nomi	Aylanmadan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Yuridik shaxslar yer solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari)	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Ijara to‘lovlari
1	Urganch shahri	100	10	100	100	100	100	100	100	100

Xalq deputatlari Urganch shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-80-156-12-180-K/23-son qaroriga
5-ilova

Shahar mahalliy budjetining 2024-yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

ming so‘mda

Hudud nomi	Daromad	Xarajat
Urganch shahri	159 845 000	201 362 681

**tamaki, alkogol maxsulotalri, shu jumladan pivo (import orqali kirgan maxsulotlardan tashqari) xamda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i bo‘yicha transfertlarni xisobga olmagan xolda*

Xalq deputatlari Urganch shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-80-156-12-180-K/23-son qaroriga
6-ilova

Shahar mahalliy budjetining 2024-yilgi yuqori budjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari

Shahar va tumanlar	Tartibga soluvchi transfert miqdori
Urganch shahri	41 516 881,0

**tamaki, alkogol maxsulotalri, shu jumladan pivo (import orqali kirgan maxsulotlardan tashqari) xamda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlari xisobidan ajratiladigan mablag‘lar*

Xalq deputatlari Urganch shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-80-156-12-180-K/23-son qaroriga
7-ilova

Shahar mahalliy budjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
1	Urganch shahri	945 000,0